

CHOLIQUSHI ROMANI HAQIDA

Meylikova Go'zal Yoqubovna

Termiz davlat niversiteti 1- bosqich talabasi.

Hafizova Feruza

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18053843>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Reshat Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon Feridening hayoti davomida turli to'siqlar, ijtimoiy munosabatlar, ichki konfliktlarga duch kelishi, shuningdek, uning mustaqil qarorlar qabul qilishi yoritilgan. Romanda qizning bolaligi va katta hayotga qadam qo'yishi, muallim qizning Kamronga bo'lgan muhabbati va hijron kabi kechinmalari va qiyinchiliklarni yengib o'tgan kuchli xarakterli qiz haqida yuritiladi.

Kalit so'zlar: Choliqushi, turk adabiyoti, qahramonlar, inson ruhiyati, ijtimoiy muhit, axloqiy qadriyatlar, mehr-muhabbat, fidoyilik, ijtimoiy ong, ma'naviy tarbiya, obrazlar.

Reshat Nuri Guntekin - turk adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri bo'lib, uning asarlari murakkab syujetga ega hamda inson ruhiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

“Choliqushi” asari 1922- yilda yozilgan bo'lib, o'qituvchilik faoliyati va ayolning jamiyatdagi roli bilan tanishtiradi, o'quvchiga insoniy qadriyatlar, sadoqat haqida chuqur tushuncha beradi. Shu bilan birga, “Choliqushi” romanini o'qish nafaqat badiiy zavq bag'ishlaydi, balki shaxsiy tafakkur va ma'naviy o'sishga ham hissa qo'shadi.

Ushbu asar birinchi jahon urushi arafasida yozilgan. Voqealar qizning shaxsiy kundaligi orqali bayon qilinadi. Asarning qahramoni Feride yoshligida ota-onasidan ajrab, hayotda turli qiyinchiliklarga duch keladi. Qiz o'z xolasining o'g'li Kamronni sevib qoladi, ammo Kamronning xiyonatidan xabar topgan Feride yashirinch u shahardan ketishga qaror qiladi.

Chekka bir qishloqda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi hamda hayotiy tajribasi ortadi va ma'naviy yetiladi. Xiyonatga ko'z yumib turmagan bo'lsa ham, sadoqati, vafosini unutmadi so'ngida esa ikki oshiqlar birga bo'lishdi. Shunda Kamron Feridega yuzlanib: Gulbashakarim, mening Gulbashakarim, - dedi ¹. Feride maktabda muallimining “ Qani ko'raylikchi, hayotingizdagi ilk xotiralaringizni yozing” deganini va sinfdoshlarining shoirona yolg'onlarini esladi. Qiz o'zini quyidagicha ta'riflaydi: “Men butunlay boshqacha qiz edim, sho'x, sergapligimdan barcha bezor edi, shuning uchun ham sinfning burchagidagi bir partada yolg'iz o'zim o'tirishga majbur edim”. Insonni, ayniqsa bolalarni o'zgartirmoq, baxtli qilmoq insoniylik bilan mumkindir. O'qituvchilikdan boshqa hech bir kasbda ko'rinmaydigan asl rol aynan shu asarda ko'rsatib, yoritilib berilganligiga shubha qilmoq behudadir” ². Asar qahramonlari quyidagicha tasvirlanadi: *Feride* (Choliqushi) — asarning bosh qahramoni, mustaqil qarorlar qabul qiladigan, dadil, sadoqatli, ma'rifatparvar ayol obrazi. *Kamron* — Feridening sevgani, ichki ziddiyatli, murakkab xarakterga ega obraz. Umuman olganda, Kamron obrazi romantik idealizmdan ko'ra haqiqatga yaqin, hayotiy va murakkab shaxs sifatida yaratilgan bo'lib, u orqali muallif sevgi, ishonch, xiyonat, jamiyat bosimi va shaxsiy mas'uliyat kabi mavzularni badiiy tahlil qiladi.

¹ Guntekin Reshat Nuri. 2007. Çalıkuşu. İstanbul: İnkılap Kitabı, 83-b.

² Guntekin Reshat Nuri. 2007. Çalıkuşu. İstanbul: İnkılap Kitabı, 83-b.

Basima — Feridening xolasi, Kamroning onasi. Basima obrazi orqali muallif o'sha davrdagi turk jamiyatida ayollarning o'ziga xos o'rni, ularning maishiy va oilaviy aloqalardagi ishtiroki, shuningdek, an'anaviy qarashlar ta'sirida shakllangan xarakter xususiyatlarini namoyish etadi. *Mujgon* — Feridening amalivachchasi. Mujgon yozuvchi tomonidan sokin, itoatkor, an'anaviy tarbiya ta'sirida shakllangan qiz sifatida tasvirlanadi. Uning xarakteri Feridening sho'x, erkin va mustaqil tabiatiga kontrast bo'lib xizmat qiladi. Bu qarama-qarshilik orqali muallif o'sha davrdagi turk jamiyatida ayollar tarbiyasi, ularning ma'naviy dunyosi va ijtimoiy o'rni o'rtasidagi farqlarni badiiy tarzda ochadi. Mujgonning obrazi, bir tomondan, oila muhitining sokin va beqaror emasligini ifodalaydi; ikkinchi tomondan, ayollarning jamiyat tomonidan belgilangan an'anaviy rolini aks ettiradi. Uning Feridega bo'lgan munosabati ko'pincha mehr, hayrat va biroz hasad uyg'otuvchi hissiyotlar aralashmasidan iborat. Mujgon Feridening kuchli xarakteri, mustaqilligi va o'zgacha fikrlashini qadrlaydi, biroq o'zi uning kabi bo'lishga jur'at eta olmaydi, shuningdek, Mujgon obrazi Feride xarakterining kuchli jihatlarini yanada yorqinlashtiruvchi psixologik kontrast rolini bajarargan.

Munisa — Feridening boqib olgan qizi. Munisa yosh bo'lsa ham sezgir, samimiy va mehrga tashna qizaloq sifatida tasvirlanadi. Uning obrazi orqali muallif bolalarning o'ziga xos dunyoqarashi va hayotga beg'ubor munosabati kabi masalalarni badiiy asarda keltiradi. Feride (Choliqushi) Munisaga nafaqat o'qituvchi, balki ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxs sifatida ta'sir qiladi. Shu bilan birga, asarda tarbiya, mehr-muhabbat, sabr-toqat va mas'uliyat kabi pedagogik tushunchalar keltiriladi. Ushbu obraz Feridening ruhiy yengillik topishida, hayotida ijobiy hislarning uyg'onishida va o'zini yanada mustahkam va irodali tutishida muhim psixologik ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Munisa obrazi "Choliqushi" romanida bolalikning beg'ubor dunyosini aks ettiruvchi, qahramonlarning emosional rivojlanishiga ta'sir etuvchi va Feridening ichki dunyosini yanada to'laqonli ochib beruvchi badiiy vosita sifatida alohida ahamiyatga ega.

Hayrullah bey — "Choliqushi" romanida Ferideni eng og'ir paytida qo'llab-quvvatlaydigan, saxiy, mehribon va doktor bo'lgan keksa chol. Ferideni turli ig'volardan himoyalaniishi uchun Ferideni nikohiga oladi, u Ferideni qizidek ko'radi, uni yomon gap-so'zlardan himoya qiladi. Roman oxiriga yaqin Hayrullah bey vafot etadi va Feridega barcha merosini qoldiradi.

Romanning asosiy mavzusi muhabbatdir. Feride uzoq vaqt mobaynida sevgisini tan olmasdan, Kamrondan nafratlanishini aytsa-da, maktabda o'qib yurgan paytlarida ham, Anadoluda ishlab yurgan paytlarida ham, Kamronni qattiq sevishta davom etadi. Feridening uzoq vaqt sevganidan ayro qolishiga sabab g'ururi va sevgisi orasida muntazam kurashni to'xtatolmagan Feride uzoq yil g'ururining sevgisi ustidan qozongan g'alabasidan azoblanib yashaydi. Anadoluda o'tgan yillari uni batamom o'zgartiradi. Xotira daftarining oxirgi sahifalarida Feride yillar davomida hatto o'zidan ham yashirishga urinib kelgan sevgisini nihoyat tan oladi. "Ha, nega endi aldashim kerak? Butun nafratimdan, isyonlarimdan, butun o'sha bo'lib o'tgan noxushliklardan qat'i nazar, men sening bir parchang edim".

Yozuvchi Feride tilidan shunday yozadi: "Naqadar orsiz ko'nglim bor mening, atrofimdagi insonlarni bunchalar tez yoqtirib qolaveraman". Inson o'zi yashagan joylarda ko'ngliga yaqin olgan insonlarga ko'rinmas simlar bilan bog'langan. Ayriliq vaqtida bu simlar tortila boshlaydi va uzilib ketgan cholg'u simlariday xazin ovoz chiqaradi; Inson kimnidir sevib qolsa, falokatga uchraganida asirga olinganday bo'ladi; Odamzot eng ko'p sevgan kishisi bilan sinaladi; Haqiqiy muhabbat orada qanchalik to'siqlar bo'lishidan qat'i nazar aslo yo'qolib

ketmaydi; G'anda qandaydir yashirin shafqat borday. Shikoyat qilmaganlarga nisbatan, ularni kulib qarshilaganlarga nisbatan qamroq zulmkor bo'ladi³. "Men muallimlikni ochlikdan o'lmaslik uchun tanlagan edim. Hisoblarim to'g'ri chiqmadi. Bu kasb ochlikdan o'ldirishi mumkin ekan. Nima bo'libdi? Axir mening ko'nglimning shafqatga bo'lgan ochligini to'ydiradigan narsa — o'z hayotini boshqalarning saodatiga bag'ishlashdan keladigan tasalli emasmi? Feridening ushbu so'zlari Rashod Nuri Guntekin yaratgan o'qituvchi obrazining eng go'zal so'zlaridan biridir.

"Choliqushi" romani zamonaviy adabiyotda insoniy va ijtimoiy mavzularni chuqur ochib bergan muhim asarlardan biridir. Asarda yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rinini, qadriyat va axloq masalalarini asosan xarakterlar orqali yoritadi. Roman orqali o'quvchi jamiyatdagi adolatsizlik, insoniy mehr-muhabbat, fidoyilik va jasorat, sadoqat kabi fazilatlarni anglaydi, qolaversa, muallif personajlar orqali davr bilan inson o'rtasidagi ziddiyatni ham tasvirlaydi. Natijada, asar jamiyatning axloqiy va ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy voqealarga tanqidiy yondashishini oshirish kabi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati shundaki, asar sadoqat, mehr-muhabbat, fidoyilik va adolat kabi insoniy xislatlarni anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy ongni rivojlantirishga, ya'ni obrazlarning hayotiy kurashlari, ichki va tashqi konfliktlar orqali o'quvchi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni tushunadi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ortadi. Shuningdek, inson ruhining murakkab tomonlarini, ichki kechinmalar va mustaqil va keskin qaror qabul qilish jarayonlarini o'rgatadi. Xususan, qahramonlar hayoti va ular duch kelgan muammolari o'quvchiga o'z hayotidagi qarorlar uchun saboq beradi va yanglish fikr hamda qaror qabul qilish istagini yo'qqa chiqaradi. "Choliqushi" asari tarbiyaviy va ma'naviy tafakkur, ijtimoiy ong va insoniy qadriyatlar va fazilatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi hamda barcha uchun ahamiyatli manba sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Güntekin Reşat Nuri. 2007. Çalıkuşu. İstanbul: İnkılâp Kitabı (223-b)(419-b).
2. Emil Birol. 1990. Öğretmenler Romancısı Reşat Nuri Güntekin. Marmara Üniversitesi Atatürk Eğitim Fakültesi Eğitim Bilimleri Dergisi. s. (1:73-83b).
3. <https://www.facebook.com/share/17khJD9Qu2/>
4. <https://refocus.uz/>

³ <https://www.facebook.com/share/17khJD9Qu2/>